



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OTA-ONALAR BILAN SAMARALI HAMKORLIKNI YO‘LGA QO‘YISH USULLARI

**Shahnoza Xolmatova Ilyosxon qizi**  
Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi  
(+998902319599)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ota-onalari bilan ishlash usullari, ularning afzalliklari, o‘zaro hamkorlik usullari, pedagogdan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik, ota-onalarda ma‘suliyatlik tuyg‘usi singari mavzular yoritilgan va bir qator yechimlar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** O‘qituvchi faoliyati, ota-onalar bilan hamkorlik, ota-onalar majlisi, ochiq eshiklar kuni, tadbirlar, individual yondashuv, kasbiy mahorat, muloqot madaniyati.

**Kirish.** Bola tarbiyasi nozik niholki, uni parvarish qilish ulkan mehnat va sabr bilan samarasi yuqori natija olib keladigan vaqt talab qiladi. Bolaning ilk tarbiyasi onaning vujudidalik vaqtida boshlanadi va dunyo yuzini ko‘rgach ilk tarbiyani oiladan, oiladagi muhitdan o‘rganadi. Bejizga xalqimiz orasida: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deyilmagan. Oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari, ularning yurish-turishlari bevosita bola ruhiyatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. A. Avloniy bobomiz aytganiday: “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”. Darhaqiqat, farzandning qaysi tomonga ketishi, qaysi yo‘lni tanlashi uning istiqbolini, ertasini belgilaydi. Bolaning rivojlanish bosqichlari, kamoloti va barkamol bo‘lib voyaga yetishida oilada ota - onalarning pedagogik va psixologik munosabatlari asosiy rol o‘ynaydi. Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko‘paytirishdir. Insonlar avlodini ko‘paytirishgina emas jamiyatga sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni yetishtirib berishdan iborat. “Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an‘analar, urf-odatlar, qadriyatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi desak bo‘ladi. Oilada to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya jarayoni bolalarda ma‘naviy va axloqiy xislatlarini, ularning ijobiy tushunchalarini, dunyoqarashini shakllantiradi, xulq-atvor madaniyatini, mehnatkash odamlar o‘z vazifasiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini tarbiyalaydi. Ota-onalar bolani oilada bog‘chadan tortib oliy o‘quv yurtigacha bo‘lgan ta‘lim jarayonida go‘zallikni qanday his qilishga, uni tushunishga, go‘zallikni barpo etishda ishtirok etish vazifalarini tarbiyalash estetik normalarga muvofiq holda va mustaqil holda ish bajarishni o‘rganishi amalga oshirgan bo‘lsa, oilada bu jarayon davom etishi shart. Ya‘ni farzandni har

tomonlarni yetuk, barkamol va Vatan ravnaqi yo‘lida munosib xizmat qiloladigan, ota – onasi, ustozlari, oilasi oldida ma’suliyatli shaxslar bo‘lib yetishishida oila va maktab hamkorligi muhim ahamiyat egallaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bugungi kunda ko‘rishimiz mumkinki, ko‘pchilik ota-onalar farzandini ta’limi qiziqishlari qolaversa, tarbiyasidagi barcha ma’suliyatlarni maktab zimmasiga yuklab qo‘ygan. O‘quvchi kamolotida nafaqat, o‘qituvchining balki ota-onaning o‘rni ham beqiyos. Hozirda o‘qituvchilar zimmasida ota-onalarni maktab hayotiga bog‘lash, ular bilan oqilona hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, birgalikda samarali faoliyat olib boorish ma’suliyati turadi. Buning uchun o‘qituvchidan yuksak kasbiy kompetentlik talab qilinadi. N.K. Krupskayaning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy mahorati - uning mavzusini bilmasdan va fanning dialektik asoslarini o‘zlashtirmasdan mumkin emas, texnika yutuqlaridan foydalangan holda, obyekt yoki hodisani taqdim etish qobiliyati bilan birgalikda o‘z bilimlaringizni boshqalarga yetkazish qobiliyati, hodisalarni tushuntirish, ularning bayonotlarining to‘g‘riligini isbotlash qobiliyati, o‘quvchilarga o‘zlashtirish, eslash, qo‘llash, bolaning fikrlash va idrok etish rivojlanishining yosh xususiyatlarini bilish, muloqotning tabiiy qiyinchiliklarini yengish, amaliyot bilan nazariyani uyg‘unligini ta’minlashdan iborat, deb tavsif beradi. Shuningdek, o‘qituvchining muloqot ko‘nikmasi ham ota-onalar bilan ishlashda, ma’lumotlarni ongli va tushunarli tarzda yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining muloqot madaniyati – bu pedagogning o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali, hurmatga asoslangan hamda psixologik qulay muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatlar majmuasidir. U o‘quv jarayonida bilim berish va tarbiyalashning asosiy quroli hisoblanadi. XX asr psixologiyasi va pedagogikasida oila va maktab o‘rtasidagi munosabatlar masalasi ko‘plab olimlar — L.S. Vygotskiy, J. Piaget, E. Erikson, U. Bronfenbrenner, A. Adler kabi tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Ularning qarashlari ota-onalar bilan hamkorlikning psixologik, ijtimoiy va madaniy asoslarini belgilab berdi. O‘zbekiston olimlaridan A. Avloni, A. Qodiriy, A. Fitrat asarlarida ham oila va tarbiya masalalari chuqur o‘rganilgan. A. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday degan: “Tarbiyachi bilan ota-onaning fikri bir bo‘lmasa, bola ikki o‘t orasida qoladi.” Bu fikr ota-onalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi fikriy birlik zarurligini ilmiy asoslaydi.

Lekin bugungi hayotimizning ba’zi bir zamonaviy ota-onalari bilan ishlashda bir qator to‘siq va muammolarga duch kelinmoqda. Oila bilan maktablarning hamkorlik qilishdagi muammolarning kelib chiqish sabablari:

1. Ota-onalarning pedagogik va psixologik savodsizligi. Ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shunday ota-onalar borki, ular: farzandlarining qanday ta’lim olayotganligi va qanday tarbiyalanayotganligiga shunchalik qiziqadiki, pedagog-o‘qituvchilar bilan yonma-yon boladagi kamchiliklar ustida ish olib boradilar. Bolasining xatti-harakatlarini nazorat qilib, ularning qiziqishlari, motivlari va talablarini inobatga oladilar.

2. Tarbiyadagi rigidli stereotiplar. Bunda har bir oilaning farzand tarbiyasi bo‘yicha otabobolaridan o‘rgangan qotib qolgan fikrlari mavjud. Bunday fikrlarga o‘zgartirishlar

kiritishda qo‘yidagilar inobatga olinishi lozim: - axborotlar oqimi, tezkor zamon va globalizatsiyalash jarayonida bola tarbiyasi haqidagi tushunchalarning yangi mazmun kashf etishi, ota-onalar farzandlarining boquvchisi, bolalarning barcha istak va xohishlarini muhayyo qiluvchi shaxslar sifatida gavdalanmasligi; - bola tarbiyasida mehnatning o‘rni benihoya katta ekanligi haqidagi asrlar davomida isbotini topib kelayotgan aksiomaga bugungi kunda yetarlicha e‘tiborning qaratilmayotganligi, ya‘ni ota-onalarning "men ko‘rgan qiyinchiliklarni farzandim ko‘rmasin" qabilidagi fikrlarning stereotipga aylanib qolishlari; har bir oilaning bola tarbiyasi borasida o‘z tajribalari, qadriyatlari, qarashlari va stillarga ega ekanligi va har bir oilaga “kirib borishda” pedagog-o‘qituvchilar, ayniqsa sinf rahbarlari uchun metodik, pedagogik, psixologik manbalarning etishmasligi singari muammolar ushbu muammoning dolzarbligini yana bir marta e‘tirof etadi.

3. Ota-onalar, shuningdek har bir oilaning o‘ziga xos jihatlarining mavjudligi. Ya‘ni pedagoglardan har bir oilaga, har bir ota-onaga individual yondashuvini tashkil etish lozim.

4. Bola tarbiyasi masalasida amaliyotda bir yoqlama faoliyatning ustunlik qilishi, ya‘ni bolani har tomonlama rivojlantirishda asosan maktab ota-onalarga turtki bo‘lishi amaliyotda kuzatiladigan holat hisoblanadi.

### **Natijalar.**

Bugungi kunda ota-onalarni maktab hayotiga jalb qilish va ular bilan to‘g‘ri yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyida ularning bir qator usullari bilan tanishamiz:

Ota-onalar yig‘ilishi – bu ota-onalar bilan birgalikdagi ishning asosiy shakli bo‘lib, u yerda sinf jamoasining hayoti, o‘quvchilarni maktabda va uyda tarbiyalashning eng muhim masalalari bo‘yicha qarorlar muhokama qilinadi va qabul qilinadi. Maqsadi – bolaning ma‘naviy boy , axloqiy jihatdan sof va jismonan sog‘lom shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun sharoit yaratishda maktab va oilaning harakatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Ota- onalar bilan kommunikativ munosabatlarni to‘g‘ri tartiblash, uni amalda o‘rinli qo‘llay olish pedagogning kasbiy salohiyatini belgilab beradi. Shuningdek, ota-onalar bilan ishlashda ularga psixologik jihatdan yondashish muhim o‘rin egallaydi. Qachonki,ota-onaning ruhiyati toza bo‘lsagina u o‘zidan ortib farzandiga e‘tibor beroladi,uni eshitadi,qo‘llab-quvvatlaydi va ijobiy munosabat bildiradi .Aynan shu yerda savol tug‘iladi: maktab o‘quvchilari ota-onalari bilan psixologik munosabatni yo‘lga qo‘yish ham pedagogning zimmasidami? Muammoning yechimi shuki, oila, mahalla va maktab o‘rtasigai o‘zaro hamkorlik bunga yechim bo‘loladi. Qachonki bu institutlar o‘z hamkorligini to‘g‘ri tashkillab, jamiytdagi har bir fuqaro o‘zaro bir-biriga kerakligini va ma’sulligini his qilsa ko‘zlangan natijaga erishilinadi. Jumladan, mahalla tashkiloti o‘zining mahallasidagi aholining ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy ta’minotga qay darajada muhtojligini aniqlab, ularga amaliy ko‘nikma berolsa, maktab mahalla orqali o‘sha o‘quvchining oilasi haqida kerakli ma’lumotlarni ololsa, o‘qituvchi bu vaziyatdan kelib chiqqan holda o‘quvchi va uning ota-onasi bilan qanday yondashish kerakligini biladi va shunga doir bilimlarni to‘playdi.

### **Xulosa.**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ota-onalar bilan hamkorlik - bu bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lib, u oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlaydi. Ushbu hamkorlikning nazariy asoslarini tahlil qilish shaxs psixologiyasini, ijtimoiy muloqotni va tarbiya jarayonini chuqur tushunishga yordam beradi. Pedagogik mahoratni yaxshi egallagan o‘qituvchi uchun bu kabi ijtimoiy munosabatlar qiyinohilik tug‘dirmaydi.

Pedagogik mahorat o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim- tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy – ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati zaminida takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Shubhasiz, pedagogik nafaqat sharaf, balki, yuksak ma’suliyatni o‘z zimmasiga olish demakdir. Shu sababli ularning mehnatini qadrlashimiz, ota-ona sifatida, tarbiyanuvchi shaxs o‘rnida, jamiyatning yetakshi vakili bo‘lib ularga ko‘maklashmog‘imiz, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalashda o‘zimizning munosib hissamizni qo‘shmog‘imiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Kurbanliyazova.Z.K Boshlang‘ich sinflarda ota-onalar bilan ishlash metodikasi. (Matn)/. Toshkent, «Tafakkur avlodi» 2020. y., 92 bet.
2. [https://jdpu.uz/oquvchilarga talim-tarbiya berishda o‘quvchilarning ota-onalari bilan o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati/](https://jdpu.uz/oquvchilarga talim-tarbiya berishda o'quvchilarning ota-onalari bilan o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati/)
3. Usenbaeva Go‘zal. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ota-onalari bilan ishlash shakllari. YANGI O‘ZBEKISTON ILMIY TADQIQOTLARI (jurnal).05.05.2025.
4. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Toshkent, ”Iqtidor moliya”2011.